

ZULFIYA QUROLBOY QIZI HIKOYALARIDA RASHK TAVSIFI

R.Raxmatova, SamDU magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada badiiy asarlarda ko‘p uchraydigan “rashk” tushunchasi haqida bahs yuritiladi. Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida ayol ruhiyatida “rashk” sabab bo‘ladigan o‘zgarishlarning ruhiy talqini tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: hikoya, ruhiyat, badiiy asar qahramonlari, rashk, ayol, his-tuyg‘u, kelin, oila tashvishlari, atir-upa va h.k.

Badiiy asar mutolasida biz qahramonlarning ichki va tashqi dunyosini o‘rgana boshlaymiz. Asar mazmuni oxiriga yetgach esa, voqealar rivojini tahlil qilamiz, undagi obrazlarni o‘zimizcha baholaymiz, ijobiy va salbiy obrazlarga ajratib chiqamiz. Va ularning taqdirini ham o‘z qarashimiz bilan o‘zgartirishga harakat qilamiz. “Agar qahramonlar boshqacha yo‘lni tutganda voqealar yaxshilik bilan tugardi, yoki aksincha, balki boshqa yo‘ldan borganda asar boshqacharoq tugardi”, - kabi fikrlar bilan o‘z mushohadamizni bildiramiz. Ikkinchi bir asarni o‘qir ekanmiz, endi ana shu ikkinchi o‘qiyotgan asarimizni birinchisi bilan solishtira boshlaymiz va natijada, ikki romanni bir-biriga qiyoslab o‘zimiz uchun yangi-yangi ma‘nolarni, tushunchalarni anglaymiz va yangidan-yangi qahramonlarni o‘zimiz uchun kashf etamiz. Ma‘lum bir davrga yoki muallifga tegishli bo‘lgan badiiy asarlarni o‘qiganimizda, ular o‘rtasida qandaydir qahramonlar, voqealar o‘rtasidagi bog‘liqlik, o‘xshashliklarni taqqoslay boshlaymiz. Jumladan, O‘.Hoshimovning qator asarlaridagi (“Urushning so‘nggi qurboni”, “Ikki eshik orasi”, “Dunyoning ishlari” va h.k.) Komil tabib obrazi, yozuvchi asarlaridagi ko‘chib yuruvchi obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Yana shunday yozuvchilar borki, ularning har bir asaridagi qahramon yangi bir obrazni, o‘zgacha bir qarashni, o‘zgacha bir qiyofani gavdalantiradi. Ayniqsa, qahramon ayol kishi bo‘lsa biz uning ichki olamini taftish eta boshlaymiz. Chunki ayol kishini tushunish uchun kamida ayoldek fikrlash va u his qilgan narsani hech bo‘lmasa tushuna olishimiz kerak. Salomat Vafo, Zulfiya Qurolboy qizi,

H.Xudoyberdiyeva singari ayol ijodkorlarimiz bugungi kunda ayollar ruhiyatini ochib berishda peshqadam ijodkorlar sanaladi. Shu ijodkorlarning asarlari orqali boshqa yozuvchilarning asarlarida ayollar psixologiyasi o'rganish imkoniga ega bo'lamiz.

Zulfiya Qurolboy qizining 2019-yilda nashrdan chiqqan "Besh tashabbus-besh kitob" loyihasiga munosib deb topilgan "Ayol" nomli hikoyalar to'plamida ayollar tasviri, ularning ruhiyati, qismati badiiy tasvirlar orqali yorqin ifodalangan. Yozuvchi har bir hikoyasiga obrazni badiiy mahorat bilan tanlagani ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Ularning biri ikkinchisini takrorlamaydi, har birining taqdiri o'zgacha uslubda bayon etiladi. Ayollarda Odam Ato va Momo Havo zamonidan meros bo'lib kelgan, "rashk" tuyg'usi tasvirida yaqqol namoyon bo'ladi. Qadimgi mifologik qarashlarga ko'ra: "Yer yuzi yaralganda, dastavval Momo Havo Odam Atoni Lilitdan rashk qilgan ekan". Aslini olganda rashk mavzusi hech qaysi asarda uchramaydigan tuyg'u yoki yangilik emas, chunki boshqa asarlarda ham biz bu tuyg'u orqali bo'ladigan hodisalar, oqibatlar haqida yetarlicha mulohazaga egamiz. Rashk tuyg'usi shunchalik nozik tuyg'uki, u ko'pgina hollarda yaxshilikdan ko'ra yomonlikka xizmat qilishi muqarrar. Buning yorqin dalili sifatida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi qahramonlar Kumush va Zaynabni ko'z oldimizga keltirishimiz mumkin. Asarning voqealar rivoji barchaga tanish: Otabek va Kumushning sevgisi bilan boshlangan asar Kumushning fojiali o'limi bilan yakun topadi. Voqealar rivojiga Zaynab kirib kelishi bilan (undan oldinroq ham) muammoli vaziyatlar boshlanadi. Kumush va Zaynabning kelishmovchiligi, Otabekning murosasizligi sababli ham Kumush halok bo'ladi. Bunga sabab esa, Zaynab va Kumush o'rtasidagi Otabekka nisbatan bo'lgan rashk... Ularning o'zaro kelishmovchilik va juda katta ziddiyatni yuzaga keltiradi. Yozuvchi Zaynab ruhiyatida sodir bo'layotgan evrilishni tasvirlash uchun asarga uning opasi Xushro'ybibi obrazini shakllantiradi, Shuningdek, oiladagi o'zaro ziddiyat, ya'ni Otabek va Kumushning muhabbati Zaynab ruhiyatida g'alayonning sodir bo'lishiga sababchi bo'ladi. Bu holat jahon va o'zbek adabiyotshunosligida asosiy mavzu sifatida yetakchi o'rinni egallaydi.

Zulfiya Qurolboy qizining “Besh tashabbus-besh kitob” loyihasiga munosib deb topilgan “Ayol” nomli hikoyalar to‘plamidan o‘rin olgan “Rashk” nomli hikoyasida “Ovulning eng suluv qizi Xosiyat qo‘shni qishloqlik Donaboy cholning o‘g‘li Sheraliga turmushga chiqqanida o‘n yeti yashar navnihol qizcha edi”. Adabiyot o‘qituvchisi bo‘lgan kuyovto‘ra ota-onasining rayiga qaramay shu qizga uylanadi va xotining atrofida girdikapalak bo‘lib yurardi. Lekin ketma-ket tug‘ilgan uch bola va mol-hol, supur-sidir, non yopish, uy tozalash, xullas, butun ro‘zg‘or tashvishi katta kelin bo‘lgan Xosiyatni butunlay o‘zgartirib yubordi. Oradan vaqtlar o‘tishi bilan Sherali oddiy ayolga aylanib qolgan xotinni xushlamay qo‘yadi, unga nisbatan (beparvolik bilan) muomala qila boshlaydi. Bundan xafa bo‘lgan xotin dardini hech kimga aytolmaydi. Atigi bir marta o‘ziga qarab hovliga chiqqan kuni ham hammadan gap eshitadi, hamma ishi teskarisiga ketgandek bo‘ladi. Kelinning dardi ichida edi, uni hech kim eshitmay yoki tushunay demasdi, hech kimga aytolmagan birdan-bir orzusi “upa-elikni, atirlar-u taqinchoqlarni eri sovg‘a qilishini juda xohlar edi”. Xosiyat ham eriga e‘tiborsiz yoki beparvo, befarosat ayol emas edi. U ham boshqa ayollarga o‘xshab, masalan, Sheralining oxirgi vaqtlarda og‘zidan tushmay qolgan “muzqaymoqchi xotin”ga o‘xshab o‘ziga qarab yurishni, “o‘zidan tappi hidi emas, atirgul hidi anqib tursa..., yonidan o‘tgan kishining mastliqdan boshlari aylanib ketishini” xohlardi. Lekin ro‘zg‘orning ikir-chikirlari bunga yo‘l qo‘ymas edi. Shu tufayli ham er-xotin bir-biridan tamoman uzoqlasha boshlaydi. Xosiyat kelin o‘zini tortgani sari Sherali ham undan uzoqlasha boradi. Shunday kunlarning birida to‘satdan Sherali o‘qituvchilik kasbini tashlab savdogarlik qilishni xohlab qoladi va kechga olmalarga xaridor er-xotin kelishini xotiniga tayinlaydi. Kechki vaqt uyga ikki emas uch kishi kelganini ko‘rgan Xosiyat kelin uchinchi kishining “muzqaymoqchi xotin” ekanligini darrov payqaydi. Guvohi bo‘layotgan voqelariga ishonmay o‘zini-o‘zi aldashga harakat qiladi. Lekin shom mahali og‘ilxonadan eshitgan gaplaridan keyin qalbida hali o‘zi ham tushunib yetmagan qandaydir tuyg‘ular paydo bo‘lgandi. Begona kishilarni ko‘rishi bilan quloqni qomatga keltirib huradigan it esa, hech tinchiy demasdi. Nimanidir ko‘ngli sezgan qaynona ularning

gaplarini eshitishi uchun unga qopag'on itning hurishi xalaqit berayotgandi. Qaynonasining buyrug'i bilan qopag'on itni boshqa joyga bog'lashga ketayotgan Xosiyat kelin erini olmazorda yana o'sha "muzqaymoqchi xotin"ning yonida ko'radi. Xotinning unga masxaromuz tikilib turishini ko'rgan Xosiyat kelin itni bog'lash uchun chorbog'ga o'tib itni bog'lamoqchi bo'lgan vaqtda "bexosdan" qo'lidagi zanjir tushib ketadi. Hamon jazavaga tushib hurayotgan it "oshiq-ma'shuqlar" tomon yugurib ketdi, hech qancha vaqt o'tmay esa ayolning jon holatda qichqirgani eshitaladi. Hikoyada rashk sabab, o'zini batamom unutgan Xosiyat ruhiyati va sodir bo'lgan fojeada it orqali ayanchli o'ch olinishi yozuvchining mahorati. O'zbek ayollariga xos bolajonlik, oila, ro'zg'or tashvishi orqali boy berilayotgan muhabbatning achchiq qismati Xosiyat obrazi orqali tasvirlanadi. Asar voqealari va oqibatlari yozuvchi tomonida juda sodda til bilan tushuntiriladi. Rashkni yuzaga keltirgan narsa, Xosiyat kelinning uyidagi vaziyati, Sheralining unga nisbatan o'zgarib qolgani va to'satdan, "muzqaymoqchi xotin"ning paydo bo'lib qolganidir. Hikoyaning bunday yakun topishiga, kelin rashkining alanganib ketishiga faqat Sherali yoki bo'layotgan hodisalar emas, ana shu hodisalar ichidagi ko'zga ko'rinmas jihatlarga ham e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Masalan, Xosiyat kelin ko'rganda ham e'tibor bermaslikka harakat qilayotgan bir paytda, "muzqaymoqchi xotin" xuddi atayin qilgandek Xosiyatning jig'iga tegishga, uning nafsoniyatini oyoq osti qilishga harakat qilayotgandek tuyuladi. "Muzqaymoqchi xotin"ning oxirgi masxaromuz qarashi Xosiyatning ko'nglidagi alam, rashk va nafrat tuyg'usini qalashtirib "qasos" tuyg'usini alangalatib yubordi va "bexosdan" qo'lidagi qopag'on itning zanjirini tushirib yubordi. Aynan ana shu rashk Xosiyatni qasos olishga undagan turtki edi.

Manbalarda "Rashk" aslida forscha so'z bo'lib, o'ziga tegishli bo'lgan, o'z haqqi deb bilgan narsani qizg'anish, unda boshqa birovning sheriklik qilishidan qalbning norozi bo'lishi va iztirobga kelishidir. Rashk ko'proq er va ayol o'rtasida namoyon bo'ladi va kuchliroq kechadi. Bu tuyg'uda ayol va erkak mushtarakdir. Ba'zan ayollarda rashk qattiqroq bo'ladi, - deb ta'kidlaydi. Rashk arab tilida «g'oyrotun» so'zi bilan ifodalanadi. Bu o'zak bizda «g'ayratshijoat», «g'ayri»,

«g'ayrlik» so'zlarida ifoda topgan. Haqiqatan, bu so'zning tub mazmunida mazkur ma'nolarning barchasi mujassam.

Rashk faqatgina ayollarga xos xususiyat emasligi yozuvchining shu to'plamga kirgan yana boshqa bir hikoyasida ham uchratish mumkin. Yozuvchining "Ko'lanka" nomli hikoyasi bosh qahramoni Samandar (keyinchalik Behruz) ham rashk tufayli ko'nglida allaqanday o'zi ham xohlamagan tuyg'ular aralashib ketadi. Sevgan qizi Dildoraga yetisha olmagan uchun, hatto, o'z do'sti Behruzga ham o'lim tilaydi. Do'sti vafot etib Dildoraga yetishgach esa, Behruzning ruhidan ham uni qizg'onadi. Oxiri shu darajaga borib yetadiki, bir umr Behruz bo'lib uning soyasi, ya'ni "ko'lanka"si yashashga ham rozi bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, rashk insondagi tug'ma xususiyat bo'lishiga qaramay, tashqi omillar ta'sirida o'z o'zanidan chiqishi muqarrar. Shu bois, rashk hammadam ham me'yordagidek bo'lmaydi. Kimdir rashkda haddan oshib, qotilga, kimdir bezoriga aylanib qolgan bo'lsa, kimdadir bu xislat tamoman yo'q bo'lib, natijada u axloqsizlik, sharmandalik botqog'iga botib ketgan. O'zbek adabiyotida yozuvchilar tomonidan yaratilayotgan asarlarda rashk tasviri o'z qiymatini yo'qotmagan muhim jihatlardan biri sifatida hali ham dolzarb.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To'ychiyev U. "O'zbek adabiyotida badiiylik". T., 2011.
2. Zulfiya Qurolboy qizi "Ayol" (hikoyalar) T. 2019.
3. Karim B. Ruhiyat alifbosi. – Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2016.
4. Каримова, С. (2021). Зебуннисобегим ше" риятида илоҳ ва мажоз тушунчаси. Иностранная филология: язык, литература, образование, (3 (80)), 16-23.
5. Каримова, С. (2021). Ҳиндистон форсий адабиёти тарихи. Иностранная филология: язык, литература, образование, (2 (79)), 25-30.
6. Каримова, С. (2021). Форс–тожик тилидаги янги адабиётда ҳиндий сабк. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (78)), 23-26.

7. Каримова, С. (2020). Зебуннисобегим шеъриятида бадий санъатлар. Иностранная филология: язык, литература, образование, (4 (77)), 18-22.

8. Каримова, С. (2020). Зебуннисобегим ва моҳларойим нодира шеъриятида тасаввуфий-ирфоний қарашлар талқини. Иностранная филология: язык, литература, образование, (3 (76)), 17-21.

9. Каримова, С. (2020). Машҳур шарқ шоираси зебуннисобегим. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (74)), 12-14.